

QASHQADARYO VILOYATI MAVZUSINI O'QITISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARING AHAMIYATI

JABBOROVA ZARINA VAHOBJON QIZI

(Jizzax davlat pedagogika universiteti)

Annotatsiya: Mazkur maqolada ta'limdi innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishning mohiyati va ta'lim sifatini oshirishdagi o'rni, hamda ahamiyati yoritib berilgan. Shuningdek, mazkur maqolada ta'lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash samarasi haqida fikr yuritilgan va oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayoniga yangicha yondashish borasida takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: innovatsiya, pedagogik texnologiya, ta'lim sifati, IT mutaxassislari, innovatsion yondashuv.

Annotation: This article highlights the importance of using innovative pedagogical technologies in education and the role and importance of improving the quality of education. The article also discusses the effectiveness of the use of innovative pedagogical technologies in the educational process and offers suggestions for a new approach to the educational process in higher education.

Keywords: innovation, pedagogical technology, quality of education, IT specialists, innovative approach

Ta'lim inson rivojlanishining muhim tarkibiy qismlaridan hisoblanib, jamiyatning muhim muammolarini hal etishda u asosiy o'rinni egallaydi. Ta'lim inson rivojlanishining muhim tarkibiy qismi sifatida qator ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va gumanitar muammolarni hal etishda mislsiz ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun yurtimiz mustaqillikka erishgach turli sohalarda bo'lgani kabi ta'lim tizimida ham tub islohotlar o'tkazish asosiy maqsad qilib qo'yildi. Mustaqil O'zbekistonning ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar negizida to'laligicha zamonaviy va raqobatbardosh

kadrlar tayyorlash maqsadi yotadi. Zero, yurtimiz jahon ta'limi talablariga tenglashayotgan bir sharoitda zamonaviy teran fikrlaydigan, intellektual va madaniy-estetik qadriyatlarga jahoniy o'chovlar bilan yondasha oladigan barkamol avlodni tarbiyalash bosh maqsadga aylandi.

Qashqadaryo viloyati mavzuga jami bir soat ajratilgan bo'lib, to'rtinchchi chorakka to'g'ri keladi. Janubiy iqtisodiy rayon mavzusida o'lkaning geografik o'rni, relyefi va asosiy tog'larini bilish haqida o'qitilib, bunda o'quvchilardan Qashqadaryo o'lkasidagi tog'larning orografiytuzilishini chiza olish, Qarshi, Jom, Malik, Qarnob, Nishon cho'llarini xaritadan ko'rsatib bera olish talab qilinadi. Bu bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlari uchun o'quvchilar darslikdagi ma'lumotlarga qo'shimcha tarzda viloyatning yoki O'zbekiston respublikasining tabiiy xaritasi, tuproq, o'simlik va hayvonot, iqlim xaritalaridan, yettinchi sinf atlasidan kengroq foydalanishlari zarur. O'lkaza oid egallangan bilimlar chorak yakunida nazorat ishi olish bilan yakunlanadi. Nazorat ishida Qahqadaryo o'lkasi qaysi tog' orqali Tojikiston va Surxondaryo bilan chegaradosh? kabi gaplardan iborat geografik diktant olinadi.

Qahqadaryo iqtisodiy rayoniga oid mavzu sakkizinchi sinfda Janubiy iqtisodiy rayon mavzusi tarkibida to'rtinchchi chorakka bo'g'ri keladi. Bu mavzuni yoritishda mintaqa haqida ma'lumotlar beriladi va o'quvchilar respublikaning asosiy yoqilg'i bazasi ekanligi, sanoatning ixtisoslashgan tarmoqlari va markazlarini, energetika – kimyo majmui haqida bilish, yozuvsiz xaritaga foydali qazilmalarini va sanoat markazlarinin tushira olish, rayonning iqtisodiy geografik o'rniga baho berish malakasini egallashlari kerak bo'ladi. Qahqadaryoning sanoati va yirik shaharlari to'g'risida aytilib, o'quvchilar agroqlimiy resurslari va qishloq xo'jaligining joylashish xususiyatlari; Qarshi dashtining o'zlashtirilishi, va ekologik muammolari haqida bilish, xarita va statistik ma'lumotlardan foydalanib sanoat tarmoqlarining joylashish omillarini tahlil qila olish malakasiga ega bo'lishlari zarur. O'quvchilar bilimlarni to'liq egallab, malakaga ega bo'lib, ko'nikmalar hosil qilishlari uchun darslikdan tashqari qo'shimcha sakkizinchi sinf O'zbekiton iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi atlasidan, O'zbekistonning ma'muriy - hududiy kartasidan, har bir iqtisodiy rayonning iqtisodiy

kartalaridan, statistik materiallardan foydalanishlari talab etiladi. Egallangan bilimlar chorak yakunida nazorat ishi olish bilan yakunlanadi. Nazorat ishida Qahqadaryo viloyatiga oid test topshiriqlari olinadi. O'quvchilarda tezkor fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish, shuningdek ularning tafakkur tezligini aniqlashga yordam berish.

Mavzuni o'qitishda darslarni samarali tashkil etish uchun o'qitishning noan'anaviy metodlaridan, ya'ni innovatsion pedagogik texnologiyaning turli usullaridan dars mavzusiga mos holda foydalanish maqsadga muvofiqdir. Shu o'rinda ushbu darsda "Zakovatli – zukko" metodining qo'llanilishi yaxshi samara beradi. Mavzu haqida ma'lumotlar berilgandan so'ng, savol - javob orqali o'tilgan mavzuni qisqa vaqt ichida so'raladi:

1 - savol. Qashqadaryo vodiysi qaysi daryolar suvi bilan sug'oriladi?

(J: Qashqadaryo, Oqsuv, Tanxoz, Yakkabog;)

2 - savol. Vegetatsiya davri tekisliklarda necha kun davom etadi?

(J: 290 - 300 kun)

3 - savol. Tollimarjon suv omborida nasoslar suvni necha km.gacha ko'tarib beradi? (J: 132 m)

4 - savol. Qahqadaryo viloyatida qanday foydali qazilma konlari bor?

5 - savol. Viloyat ekin maydonining necha foiziga paxta ekiladi? (J: 25%)

6 - savol. Viloyatda nechta shahar va shaharchalar bor? (J: 12 ta sh., 4 ta sh-cha)

7 - savol. Qarshi shahrida qanday oliy ta'lim muassasalari bor?

(J: Qarshi davlat universitetu, Qarshi agrar - iqtisodiyot instituti, TDT universitetining Qarshi filiali)

8 - savol. Ulug'bek nomidagi kenglik stansiyasi qayerda joylashgan?

(J: Kitob shahri yonida)

9 - savol. Viloyatda paxtaning qanday navi yetishtiriladi?

(J: Ingichka tolali paxta)

10 - savol. Chorvachilikning yetakchi sohalari qaysilar?

O'quvchilar o'qituvchi tomonidan berilgan qisqa muddatda to'g'ri va aniq javob qaytara olishlari zarur. Savollarning murakkablik darajasiga ko'ra har bir savolga

qaytarilgan to'g'ri javob uchun vaqt belgilanadi. O'tilgan mavzu "Eng, eng, eng" o'yini orqali qisqa savol, tez va qisqa javob tarzida baholanadi. Masalan 8 – sınıf O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi kursida savollar quyidagicha bo'lishi mumkin.

- ▶ Buxoro – Navoiy iqtisodiy rayonidagi maydoni eng katta viloyat?
- ▶ Buxoro viloyatining eng mashhur sanoat tarmog'i?
- ▶ Iqtisodiy rayon xo'jaligining eng yetakchi tarmog'i?

Agar 7 – sınıf O'rta Osiyo va O'zbekiston tabiiy geografiyasi kursi o'tilayotgan bo'lsa,

- 1.Qashqadaryo o'lkasining eng asosiy tog'lari?
2. O'lkada eng ko'p uchraydigan foydali qazilma?
3. O'lkaning eng uzun daryosi?

Shunga o'xshash o'nlab savollar bo'lishi mumkin

Mavzu **Yumaloqlangan qor** o'yini yordamida mustahkamlanadi.O'qituvchi o'quvchilarni guruhlashda o'quvchilarning tug'ilgan sanasiga qarab guruhlaydi. Bunda oyning 1 - kunidan 10 - kunigacha tug'ilgan o'quvchilar bir guruh, ularning nomi "**Qarshi**" guruhi, 11 - kundan 20 - kungacha tug'ilgan o'quvchilar ikkinchi guruh bo'lib, ularning guruhi nomi "**Kitob**" guruhi. Uchinchi guruh oyning 21 - kunidan 31 - kunigacha tug'ilgan o'quvchilar bo'lib, bu guruh nomi "**Qamashi**" guruhi deb nomlanadi. Ular belgilangan stol atrofida birlashadilar va sardorlar saylanadi. Usulning qo'llanilishi: guruh nomi yozilgan kartochkalarning orqa tomoniga guruh sardorlariga mavzuni o'zlashtirishga oid ikkita savoldan iborat topshiriq yoziladi. Guruhning boshqa a'zolariga test beriladi. Guruhning yana ikki a'zosi doskada ilingan krossvord yechishga kirishadi

1	Q								
2	A								
		4							
		SH							

				5							
		6				A					
7							D				
				8					A		R
						9					
10									11		

Berilgan savollarga javoblar bo'yicha o'quvchilarining fikrlari umumlashtiriladi.

Shuningdek, o'qituvchi mavzu yuzasidan o'quvchilarni qiziqtirgan savollarga javob beradi. Xulosa va natijalar shuni ko'rsatadiki, agar har bir geografiya fani o'qituvchisi o'z ish faoliyati davomida, har bir mavzuni o'qitish jarayonida yangi pedagogik texnologiyalardan va mavzularga doir didaktik materiallardan va didaktik o'yinlardan foydalansalar geografik ta'lif - tarbiya jarayonida ijobiy natjalarga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Baratov P. O'zbekiston tabiiy geografiysi. –T., O'qituvchi, 1996.
2. Darinskiy A.V. "Metodika prepodavaniya geografii". Moskva, "Prosvesheniya", 1975.
3. Topildiev V.R. Ta'lif va tarbiya jarayonlarini tashkil etishning me'yoriy-huquqiy asoslari. –T., 2015. 164-bet.
4. Safarov A., Baxromov Q. "Pedagogik texnologiya asoslari". Toshkent "O'qituvchi" 2004 y.
5. Tolipov O'.Q., Usmonboyeva M. "Pedagogik texnologiyalarning tadbiqiy asoslari". Toshkent "Fan" 2006 y.
6. Qurban niyozov R. Geografiya o'qitish metodikasi. T., O'qituvchi, 2001 y.
5. Xoldorova, G. (2021). Mirzacho'lda atrof-muhitni monitoring qilish masalalari. *Jurnal Pedagogiki i psixologii v sovremenном образовании*, (1)
6. Gapparov, A., & Kholdorova, K. (2020). Population Systems In The Reclaimed Lands Of The Republic Of Uzbekistan. *Arxiv Nauchnyx Publikatsiy JSPI*.



7. Abdunazarov, U., & Sabitova, N. (2020). Morphological features of buried Soils of loess formations of the prytashkent region of Uzbekistan. *Arxiv Nauchnyx Publikatsiy JSPI*

